

**“PEDAGOGIK MAHORATNI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO
TAJRIBANI O‘RGANISHNING ILMIIY-METODOLOGIK AHAMIYATI”***Abdusoatova Zarnigor Otabekovna**Ahmedova Munajat Ismoil qizi**Termiz davlat pedagogika instituti talabalari*

Anotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik mahoratni rivojlantirishda xalqaro tajribani o‘rganishning ilmiy-metodologik ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy ta‘lim jarayonida ilg‘or xorijiy tajribalarni tahlil qilish, ularni milliy ta‘lim tizimiga moslashtirish va amaliyotga joriy etishning ustuvor yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini oshirishda xalqaro tajribaning ta‘siri, innovatsion ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlari va ta‘lim sifati hamda samaradorligini oshirishdagi o‘rni ilmiy asosda izohlangan.

Аннотация. В данной статье раскрывается научно-методологическое значение изучения международного опыта в развитии педагогического мастерства. Показаны приоритетные направления анализа передовой зарубежной практики, её адаптации к национальной системе образования и внедрения в педагогическую деятельность. Обосновано влияние международного опыта на повышение профессиональных компетенций педагогов, использование инновационных образовательных технологий, а также его роль в обеспечении качества и эффективности образования.

Annotation. This article highlights the scientific and methodological significance of studying international experience in the development of pedagogical mastery. It identifies the priority directions of analyzing advanced foreign practices, adapting them to the national education system, and implementing them into pedagogical activities. The article also substantiates the impact of international experience on enhancing teachers' professional competencies, applying innovative educational technologies, and its role in ensuring the quality and effectiveness of education.

Kalit so‘zlari: Pedagogik mahorat, xalqaro tajriba, metodologiya, ta‘lim tizimi, kasbiy kompetensiya, innovatsion texnologiya, integratsiya, samaradorlik

KIRISH.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari sharoitida ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish, pedagogik kadrlarning kasbiy mahoratini rivojlantirish hamda xalqaro tajribani o‘rganish va amaliyotga joriy etish davlat siyosatining ustuvor



yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oxirgi yillarda qabul qilingan qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu jarayonning ilmiy-metodologik asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni hamda 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta‘lim sifatini oshirish, pedagogik kadrlarning kasbiy mahoratini rivojlantirish va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish masalalari ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta‘lim va fan sohasini yanada rivojlantirish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PQ–4884-son qarorida ham ta‘lim tizimiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, xalqaro standartlarga mos malakali kadrlar tayyorlash, ustoz va murabbiylarning pedagogik mahoratini oshirish hamda ilmiy-metodologik asoslarni mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar belgilangan. Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi doirasida esa ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganish, ta‘limda yangi metodik mexanizmlarni yaratish, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish va o‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qayd etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” Farmonida ham ta‘lim sohasini rivojlantirishning muhim vazifalari sifatida xalqaro reytinglarda mamlakatning o‘rnini yaxshilash, o‘qituvchilar malakasini oshirish, ularning pedagogik mahoratini rivojlantirish va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirishga alohida urg‘u qaratilgan. Mazkur hujjatda ta‘lim sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xalqaro akkreditatsiya tizimini joriy qilish va xorijiy ta‘lim standartlariga mos ravishda milliy o‘quv dasturlarini boyitish masalalari ham belgilab qo‘yilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-maydagi PQ–153-sonli “Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini xalqaro talablarga moslashtirish, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish, amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash va pedagogik faoliyatda ilg‘or xorijiy tajribalarni keng joriy etish belgilab berildi. Ushbu qaror ustoz va murabbiylarning kasbiy-pedagogik mahoratini oshirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan farmon va qonunlardan kelib chiqib aytish mumkinki, pedagogik mahoratni rivojlantirishda xalqaro tajribani o‘rganish nafaqat ta‘lim sifatini



oshirish, balki pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash, zamonaviy metodik yondashuvlarni tatbiq etish va xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun zaruriy shartdir. Zero, bugungi kunda ta'limda yuz berayotgan o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, yangi metodik mexanizmlar va global hamkorlikning kuchayishi pedagogik faoliyatni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shu ma'noda, xalqaro tajribani chuqur o'rganish va uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish ilmiy-metodologik jihatdan muhim bo'lib, pedagogik mahoratni rivojlantirishda asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi[11].

Pedagogik mahoratni rivojlantirishda xalqaro tajribani o'rganishning ilmiy-metodologik ahamiyati bugungi globallashuv jarayonida ta'lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ularning faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Dunyoning ilg'or mamlakatlari ta'lim tizimida to'plangan tajriba ko'rsatadiki, o'qituvchilarning professional rivoji nafaqat bilim va ko'nikmalarni oshirish bilan, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy va metodik salohiyatini kengaytirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston ta'lim tizimida xalqaro tajribani o'rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish jarayoni ilmiy asosda tashkil etilmoqda. Masalan, Finlyandiya ta'lim modelida o'qituvchilar jamiyatda eng nufuzli kasb egalari sifatida e'tirof etilib, ularning kasbiy tayyorgarligi, mustaqil metodik yondashuvni tanlash erkinligi hamda reflektiv tahlil qilish qobiliyati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham ushbu modelni o'rganish O'zbekistonda o'qituvchining jamiyatdagi ijtimoiy maqomini oshirish va ta'lim samaradorligini ta'minlashda dolzarbdir. Yaponiyada esa pedagogik mahoratni rivojlantirishda "Lesson Study" metodikasidan keng foydalaniladi[12].

Bu yondashuvda o'qituvchilar o'zaro hamkorlikda darslarni kuzatadilar, tahlil qiladilar va tajribalarni umumlashtiradilar. Natijada, pedagoglarda refleksiya, tanqidiy tahlil, o'zaro hamkorlik va yangilikka ochiqlik kabi kasbiy ko'nikmalar rivojlanadi. O'zbekistonda ham ushbu metodologiyani bosqichma-bosqich joriy etish orqali o'qituvchilarni xalqaro hamjamiyatda qo'llaniladigan ilg'or yondashuvlarga yaqinlashtirish mumkin. Shu bilan birga, Koreya Respublikasida ta'lim sifatini oshirishda doimiy ravishda milliy malaka standartlari ishlab chiqiladi va o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylantirilgan. Bu esa O'zbekistonda qabul qilingan "Ustoz va murabbiylarni rag'batlantirish"ga oid qarorlar bilan uzviy uyg'unlik kasb etadi. Amaliy misollar shuni ko'rsatadiki, xalqaro tajribani o'rganish va uni milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish o'qituvchining metodik salohiyatini oshirish, innovatsion



texnologiyalarni qo'llash va shaxsiy rivojlanishni ta'minlashda samarali mexanizm sifatida xizmat qiladi. Masalan, Buyuk Britaniya ta'lim tizimida har bir pedagog uchun "Professional Development Framework" ishlab chiqilgan bo'lib, bunda o'qituvchi faoliyatining barcha bosqichlari uchun aniq metodik ko'rsatmalar va kompetensiyalar tizimi belgilanadi. Bu kabi yondashuv O'zbekistonda 2030-yilgacha bo'lgan ta'lim konsepsiyasi doirasida pedagoglar uchun kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish dasturlarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, xalqaro tajribani chuqur o'rganish jarayonida milliy qadriyatlar, madaniy xususiyatlar va mavjud sharoitlarni inobatga olish zarur. Chunki, har qanday ilg'or modelni bevosita ko'chirib olish emas, balki uni milliy tizimga moslashtirish samaradorlikni belgilaydi. Masalan, Germaniyada pedagoglarni tayyorlash jarayonida "dual tizim" keng qo'llanilib, nazariya va amaliyot uyg'un holda olib boriladi. Ushbu tajriba O'zbekistonda pedagogik ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishda, ya'ni amaliy mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor qaratishda muhim metodologik asos bo'la oladi[13].

Xalqaro tajribadan foydalanishning yana bir muhim jihati – bu raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etishdir. AQSh, Singapur, Estoniya kabi mamlakatlar ta'lim tizimida elektron resurslardan samarali foydalanish, masofaviy o'qitish platformalarini yaratish va o'quvchilarni mustaqil bilim olishga yo'naltirishga katta e'tibor qaratadi. Bu jarayon O'zbekistonda ham keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Raqamli ta'lim" dasturi asosida elektron platformalar, interaktiv darsliklar va onlayn ta'lim resurslari joriy etilmoqda. Shu orqali pedagogik mahoratni rivojlantirishda raqamli kompetensiya ajralmas qismga aylanmoqda. Xalqaro tajribani o'rganishning ilmiy-metodologik ahamiyati shundan iboratki, u nafaqat pedagoglarning kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirish, balki ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash va ta'lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini beradi. Bu jarayon o'z navbatida O'zbekiston ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini, pedagoglarning kasbiy o'sishini va jamiyatda raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishni ta'minlaydi[10].

Pedagogik mahorat insoniyat taraqqiyotining eng muhim poydevorlaridan biri hisoblanadi. Chunki har qanday davlatning rivojlanish darajasi bevosita ta'lim tizimining sifatiga, ta'lim tizimi esa o'z navbatida ustoz va murabbiylarning kasbiy kompetensiyasi, mahorati hamda pedagogik faoliyatga bo'lgan yondashuviga chambarchas bog'liqdir. Shu boisdan ham bugungi globallashtirish sharoitida pedagogik mahoratni rivojlantirish jarayonida xalqaro tajribalarni o'rganish, ularni milliy ta'lim amaliyotiga tadbiiq etish nafaqat metodik jihatdan, balki ilmiy-nazariy va huquqiy



asoslarda ham dolzarbdir. Xalqaro tajribaning ilmiy-metodologik ahamiyatini baholashda, avvalo, ilg'or davlatlarning ta'lim siyosati, o'qituvchilar malakasini oshirish mexanizmlari, pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish shakllari hamda milliy an'ana va qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish yo'llariga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, Finlyandiya ta'lim tizimi butun dunyoda o'qituvchi shaxsiga bo'lgan hurmat va e'tibor, ularning malakasini muntazam rivojlantirish hamda ta'lim jarayonini insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etishi bilan mashhurdir. Bu yerda pedagog bo'lish uchun nafaqat oliy ta'lim muassasalarida tahsil olish, balki mustahkam ilmiy tayyorgarlikka ega bo'lish, chuqur amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish zarur hisoblanadi. Shu boisdan ham Finlyandiya ta'lim tizimida pedagogik mahorat xalqaro darajada tan olingan. Xuddi shunday tajribalarni Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlar misolida ham kuzatish mumkin. Masalan, Janubiy Koreyada ustozlarning kasbiy mahoratini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng qo'llaniladi, doimiy onlayn kurslar, interfaol platformalar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan innovatsion loyihalar asosida pedagoglar faoliyatini boyitish yo'lga qo'yilgan[9].

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda ta'lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish, o'qituvchilar malakasini oshirish va pedagogik mahoratni shakllantirish jarayonida xalqaro tajribalarni keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" hamda 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni pedagogik faoliyatda xalqaro standartlarni tatbiq etish, ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish zarurligini belgilab berdi. Bundan tashqari, 2020-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ham ta'lim sifatini oshirishda xalqaro reytinglar, akkreditatsiya va sertifikatlash mexanizmlaridan foydalanish belgilab qo'yilgan bo'lib, bu bevosita pedagogik mahoratni rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslarini kuchaytiradi. Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, pedagogik mahoratni rivojlantirishda xalqaro tajribani o'rganish metodologiyasi uch bosqichda amalga oshiriladi: birinchisi – ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish, ularning samaradorligini ilmiy asosda baholash; ikkinchisi – bu tajribalarni milliy ta'lim tizimi uchun moslashtirish va tajriba-sinov ishlarini tashkil etish; uchinchisi – olingan natijalarni ilmiy asoslash, amaliyotga keng joriy etish va metodik qo'llanmalar yaratish. Bu jarayon o'z-o'zidan emas, balki xalqaro ilmiy hamkorlik, qo'shma loyihalar, o'qituvchilarning xorijiy tajriba



Learning and Sustainable Innovation

almashinuvi dasturlari orqali kuchaytiriladi[14].

Amaliy misol sifatida, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan British Council, Erasmus+, KOICA kabi xalqaro ta'lim dasturlari orqali o'qituvchilarning malaka oshirish jarayonlari ko'rsatib o'tish mumkin. Bu dasturlar o'zida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, innovatsion metodlarni o'rganish va xalqaro standartlarga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etish imkoniyatini beradi. Shu orqali o'zbek pedagoglari nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy tajribalarini ham boyitib, o'z faoliyatida xalqaro metodikani samarali qo'llash imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Shuningdek, xalqaro tajribalardan foydalanishda ilmiy-metodologik asos sifatida shuni ham ta'kidlash lozimki, pedagogik mahoratni rivojlantirish faqatgina malaka oshirish kurslari yoki xorijiy tajribani o'rganish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bu jarayon uzluksiz ta'lim tamoyillari, andragogika nazariyalari, psixologik yondashuvlar va sotsiologik tahlillar bilan uyg'un holda olib borilishi lozim. Masalan, andragogika nazariyasiga ko'ra, kattalar ta'limi jarayonida motivatsiya, shaxsiy tajriba va o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj ustuvor o'rin tutadi. Shu boisdan ham o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirishda ularning individual ehtiyojlari va kasbiy maqsadlari e'tiborga olinishi zarur. Natijada, xalqaro tajribalarni o'rganish pedagogik mahoratni rivojlantirishning nafaqat nazariy asoslarini boyitadi, balki milliy ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqadigan ilmiy-metodologik poydevor ham yaratadi. Shu ma'noda, xalqaro tajribani chuqur o'rganish va uni amaliyotga tatbiq etish O'zbekiston ta'lim tizimi uchun strategik vazifadir[8].

Pedagogik mahoratni rivojlantirishda xalqaro tajribani o'rganish masalasi bugungi kunda nafaqat ta'lim tizimi, balki butun jamiyatning intellektual salohiyatini belgilovchi omillardan biridir. Chunki o'qituvchilarning kasbiy faoliyati, ularning metodik yondashuvlari va ta'lim jarayoniga kiritiladigan innovatsion texnologiyalar bevosita yosh avlod tarbiyasiga, ularning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashiga hamda kelgusida mamlakat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalqaro tajribalarni ilmiy asosda tahlil qilish va ularni milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish nafaqat metodik, balki strategik vazifadir. Finlyandiya ta'lim tizimi dunyo miqyosida eng ilg'or model sifatida e'tirof etiladi. Bu davlatda pedagog bo'lish juda katta mas'uliyat va tayyorgarlikni talab etadi. O'qituvchilar faqat oliy ta'limda emas, balki ilmiy-tadqiqot faoliyatida ham faol ishtirok etadi, ular uchun mustaqil pedagogik izlanishlar olib borish majburiy hisoblanadi. Bu orqali o'qituvchilarning pedagogik mahorati faqat nazariy bilimlar asosida emas, balki ilmiy-tadqiqot metodologiyasi orqali rivojlanadi. Shu jihatdan, O'zbekiston ta'lim tizimida ham pedagoglarni ilmiy faoliyatga kengroq jalb qilish, ularni kichik ilmiy loyihalar asosida muntazam



Learning and Sustainable Innovation

rivojlantirish samarali natijalar beradi. Janubiy Koreya tajribasida esa ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni keng qo'llash, o'qituvchilarni zamonaviy platformalar bilan ishlashga o'rgatish hamda onlayn va oflayn malaka oshirish dasturlarini uyg'unlashtirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Koreyalik pedagoglarning kasbiy rivojlanishida o'zini o'zi baholash tizimlari, doimiy monitoring va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan grant dasturlari muhim rol o'ynaydi[15].

O'zbekiston sharoitida ham "Raqamli ta'lim" loyihalari doirasida bunday tajribani tatbiq etish, xususan, ustoz va murabbiylarning o'z bilimlarini masofaviy kurslar orqali muntazam yangilab borishini rag'batlantirish pedagogik mahoratni sifat jihatdan yuksaltiradi. Yaponiya ta'lim tizimida o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki jamiyatda ma'naviy yetakchi sifatida qaraladi. O'quvchi shaxsini to'liq kamolga yetkazishda ustozning tarbiyaviy roli birlamchi o'ringa qo'yiladi. Shu boisdan ham Yaponiya pedagoglari pedagogik mahoratni rivojlantirish jarayonida nafaqat o'qitish metodikasini, balki psixologik-pedagogik yondashuvlarni ham chuqur o'rganadilar. O'zbekistonda ham ustoz-shogird an'anasi, qadimiy pedagogik meros hamda milliy tarbiya konsepsiyasi mavjud bo'lib, uni Yaponiya tajribasi bilan uyg'unlashtirish, zamonaviy psixologik treninglar asosida kuchaytirish mumkin. Germaniya ta'lim tizimida esa pedagogik mahoratni rivojlantirish ko'proq dual ta'lim modeli bilan bog'liqdir. Bu modelda o'qituvchi nafaqat nazariy bilimlarni, balki ishlab chiqarish, amaliyot va kasbiy tayyorgarlikni ham o'quvchilarga singdiradi. Shuningdek, pedagoglarning malaka oshirish tizimi davlat va xususiy sektor hamkorligida yo'lga qo'yilgan bo'lib, doimiy seminarlar, tajriba almashuv dasturlari orqali ularning mahorati rivojlantiriladi[16].

O'zbekiston ta'lim tizimida bu tajribani tatbiq etish kasb-hunar ta'limi tizimida ayniqsa samarali bo'lishi mumkin. Xalqaro tajribalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, pedagogik mahoratni rivojlantirishda uchta umumiy omil mavjud: birinchidan, uzluksiz kasbiy rivojlanish va malaka oshirish; ikkinchidan, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish; uchinchidan, innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish. Bu omillarni O'zbekiston ta'lim tizimida kuchaytirish orqali ustoz va murabbiylarning pedagogik mahorati yangi bosqichga ko'tariladi. Ilmiy-metodologik nuqtai nazardan qaralganda, xalqaro tajribani o'rganish nafaqat mavjud modelni ko'r-ko'rona qabul qilish, balki uni milliy sharoitga moslashtirish, tahlil qilish, sinovdan o'tkazish va ilmiy asosda baholashni talab etadi. Shu bois, O'zbekistonda pedagogik mahoratni rivojlantirish jarayonida xalqaro hamkorlik dasturlarini kengaytirish, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, ustozlarning chet davlatlarda tajriba orttirishini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ilmiy izlanishlar natijalarini amaliyotga tatbiq etish ustuvor yo'nalishlardan bo'lishi



zarur. Xalqaro tajribani chuqur o'rganish pedagogik mahoratni rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslarini yanada mustahkamlaydi. Bu jarayon orqali o'zbek pedagoglari nafaqat ilmiy salohiyatini oshiradi, balki milliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini ham ta'minlaydi[7].

XULOSA. Pedagogik mahoratni rivojlantirish bugungi globallashuv sharoitida nafaqat milliy ta'lim tizimining, balki xalqaro hamkorlik siyosatining ham ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan chuqur islohotlar, xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Yoshlarni ma'naviy va intellektual rivojlantirish konsepsiyasi", "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" Davlat dasturi, "2030-yilgacha ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" hamda Prezident farmon va qarorlari mazkur masalaning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Shu boisdan ham ustoz va murabbiylarning kasbiy-pedagogik mahoratini oshirishda xalqaro tajribani o'rganish, uni milliy an'analar, qadriyatlar va zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish muhim ilmiy-metodologik va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro ta'lim tajribasi shuni ko'rsatadiki, pedagogik mahoratni yuksaltirishda uzluksiz kasbiy rivojlanish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash, o'qituvchilarning ijtimoiy maqomini oshirish, innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish, ustoz-shogird tizimini rivojlantirish va davlat-xususiy sheriklik asosida malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish eng samarali mexanizmlar hisoblanadi. Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniya kabi davlatlarning ilg'or tajribalari O'zbekiston sharoitida tatbiq etilishi mumkin bo'lgan samarali yo'nalishlarni belgilab beradi. Ilmiy-metodologik tahlil natijalariga ko'ra, xalqaro tajribani o'rganishning samaradorligi ularni milliy ta'lim tizimiga to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etishda emas, balki mavjud an'ana va qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, tajribalarni moslashtirish, sinovdan o'tkazish va bosqichma-bosqich joriy etishda namoyon bo'ladi. Bu jarayonda ilmiy asoslangan refleksiya, monitoring va natijalarni baholash usullari alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajribani o'rganish va tatbiq etish pedagogik mahoratni rivojlantirishning eng muhim ilmiy-metodologik yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayon orqali O'zbekiston ta'lim tizimi nafaqat milliy miqyosda, balki xalqaro maydonda ham raqobatbardosh bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.



3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. PF–60. – Toshkent, 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2030-yilgacha ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2019.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
7. Saydulloyevich, O. Y. (2023). Samples of the Wisdom of Imam Abu Hamid Ghazali Quoted in the Great Works. *World Bulletin of Social Sciences*, 25, 18-21.
8. Saydulloyevich, O. Y., & Erkinova, S. O. (2024). ABU HOMID G ‘AZZOLIY ASARLARIDA “YOLG ‘ON SO ‘ZLASH VA YOLG ‘ON QASAM ICHISH” YOMON ILLAT EKANLIGI HAQIDAGI QARASHLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 505-510.
9. Saydulloyevich, O. Y. (2024). TALABALARNI MANAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA ABU HOMID G'AZZOLIY ASARLARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 511-516.
10. Ismoilova Durдона G‘Ulom Qizi (2024). TALABALARNI MA‘NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDA ABU HOMID G‘AZZOLIY ASARLARINING TUTGAN O‘RNI. *Research Focus*, 3 (12), 109-114. doi: 10.5281/zenodo.14532269
11. Shavkatovna, X. M. (2025). Pedagogik nazorat va baholash. *ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI*, 2(6), 124-126.
12. Shavkatovna, X. M., & Akbarovna, N. D. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 494-498.
13. Shavkatovna, X. M. (2024). GENDER TENGLIKNING HUQUQIY VA IJTIMOY ASOSLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 499-504.



14. Shavkatovna, X. M. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH. *Research Focus*, 3(11), 124-128.
15. Shavkatovna, X. M., & Qizi, S. R. B. (2024). INKLYUZIV TA'LIM: GLOBAL TAJRIBA VA O'ZBEKISTON MODELI. *Research Focus*, 3(11), 117-123.
16. Xolova M, Amirqulova M. QUALIFIED TEACHER–EFFECTIVE LESSON ORGANIZER. InINTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE 2024 (Vol. 1, No. 12, pp. 285-289).